



## FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHART MAYLINING SHAKLLANISHI

**Zinatullina A.X**

*Farg'ona davlat universiteti fransuz tili o'qituvchisi*

**Jo'rayeva M.N**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

*Tel: +99890 407 69 48*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola fransuz va o'zbek tillarida shart maylining qo'llanishi, o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan. Shart maylining yasaladigan shakl va zamonlari ham shu yerda keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** xususiyatlari, ta'lim, zamon, qo'llanishi, fransuz, O'zbekcha, shart mayli, murakkab gap.

Conditionnel (Shart mayli) ish-harakatning biror shart bilan bajarilishini anglatadi. Conditionnel mayli mustaqil gaplarda istak, iltimos ma'nolarini hamda bajarilishi mumkin bo'lgan ish-harakatni ifodalashda qo'llaniladi:

Masalan : Je voudrais faire ce travail.

Men shu ishni qilmoqchiman.

Pourriez-vous me dire adresse?

Menga uning adresini aytib berolasizmi?

Si j'étais libre, je viendrais chez toi.

Bo'sh bo'lganimda edi, senikiga kelardim.

Conditionnel maylining zamonlari

Conditionnel maylida ikkita zamon va ikkita forma mavjud:

conditionnel présent, Conditionnel passé.

Conditionnel présent

“Conditionnel présent sodda zamon bo'lib, uni hosil qilish uchun fe'lning noaniq formasiga uchala guruh fe'llari uchun quyidagi shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi:

-ais, -ais, -ait, -ions, -iez, -aient.

Masalan: Je parlerais, tu parlerais, il parlerait,

nous parlerions, vous parleriez, ils parleraient.

Ba'zi III guruh fe'llaridan Conditionnel présent hosil qilishda ularning negizi o'zgaradi. » [1,148]

Masalan: etre – je serais; envoyer – j'enverrais; avoir – j'aurais.

Je voudrais voir ce film. Il pourrait nous aider.

Conditionnel passé murakkab zamon bo'lib, yordamchi fe'l avoir yoki etre fe'linii Conditionnel présent da olib, asosiy tuslanuvchi fe'lning Participe passé ( o'tgan zamon shakli) shaklini qo'shish bilan yasaladi.

Masalan : Hier, j'aurais fait volontiers ce rapport.

Kecha men bu hisobotni mamnuniyat bilan qilgan bo'lardim.



Il serait parti la semaine passée. U o'tgan hafta ketgan bo'lardi.

Conditionnel passé zamonining II-formasi

Conditionnel passé zamonining II-formasi bilan Plus-que-parfait va subjontif zamoni bilan shakl jihatidan bir xildir. Conditionnel passéning II-formasi og'zaki nutqda ishlatilmaydi, u faqat yozma tutqdagina uchraydi.

Conditionnel passé zamoni II formasining qo'llanilishi Plus-que-parfait va subjontif zamoni bilan umumiylikka ega.

Asosan Conditionnel passéning II-formasi si bog'lovchisi bilan ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llaniladi:

Masalan : Si elle eut voulu, elle lui eut écrit.

Agar u xohlaganda edi, u unga yozgan bo'lar edi.

Conditionnel zamonlarining shartlik ish-harakatini ifodalashda qo'llanilishi:

Conditionnel zamonlari ish-harakatning bajarilishi biror shartga bog'liq bo'lishini ifodalab, ko'pincha shart ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llanadi.

Bunda Conditionnel zamonlari asosan bosh gapda kelib, ergash gapda aniq mayl zamonlari qo'llanadi.

Ergash gapda qo'llanilgan fe'l zamoni bosh gapdagi zamon formasiga bog'liq bo'lmaydi, balki ish-harakat qaysi paytda bajarilganligiga qarab qo'llanadi.

Shart ergash gaplarda taxminan bajarilishi mumkin bo'lgan ish-harakat so'zlanib turgan paytga yoki kelajakka qarashli bo'lganda Imparfait de l'Indicatif qo'llanilib, bosh gapda o'sha paytga qarashli ish-harakat Conditionnel présent da qo'yiladi:

Masalan : Si vous sortiez maintenant, ils vous mettraient la main dessus, mon fils. (L.Aragon). Agar hozir chiqib ketsang, o'g'lim seni qo'lga olishardi.

Shart ergash gaplarda taxmin qilingan ish-harakat o'tgan zamonga qarashli bo'lganda Plus-que-parfait de l'Indicatif yoki Conditionnel passé ning II-formasi olinib, bosh gapdagi bajarilmagan ish-harakatni ifodalash uchun Conditionnel passé yoki Conditionnel passé ning II-formasi olinadi.

Masalan : Si Rose n'était pas allée ce matin à l'école, Monsieur Richard aurait probablement téléphoné lui-même (J. Laffute). Roza bugun ertalab maktabga bormaganida, balki janob Risharning o'zi qo'ng'iroq qilgan bo'lar edi.

Ergash gapdagi ish-harakat so'zlanib turgan paytga qarashli bo'lib, bosh gapdagi ish-harakat o'tgan zamonga qarashli bo'lganda, ergash gapda Imparfait de l'Indicatif olinib, bosh gapda Conditionnel passé qo'llanadi:

Masalan : S'il parlait anglaise, il m'aurait aidé à faire cette traduction. Agar u ingliz tilida gapirishni bilganda, bu tarjimani qilishda menga yordam bergan bo'lar edi.

« Ergash gapdagi ish-harakat o'tgan zamonga qarashli bo'lganda, bosh gapdagi ish-harakat so'zlanib turgan paytga qarashli bo'ladi, bunda ergash gapda Plus-que-parfait olinib, bosh gapda Conditionnel passé ishlatiladi » [2,474]:

Masalan : Si vous aviez appris cette poésie, vous la réciteriez à présent.

Agar bu she'rni yodlab olgan bo'lsangiz edi, siz uni hozir aytib berar edingiz.





Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda, ikkala gapda ham Conditionnel zamoni ishlatiladi:

Vivrait-il cent ans, il resterait le meme.

Agar yuz yil yashasa, o'sha-o'shaligicha qolaverardi.

Conditionnel ning mustaqil gaplarda qo'llanishi:

Conditionnel (présent va passé) hollarda qo'llaniladi:

1. Istakni ifodalashda:

Conditionnel présent istakning kelajakda bajarilishi mumkinligini ifodalaydi.

Conditionnel passé esa istakning o'tgan zamonda bajarilmay qolganligini ifodalaydi.

Masalan: Je voudrais voir ce nouveau film.

Men bu yangi filmni ko'rmoqchiman.

Il aurait pu nous aider hier.

U bizga kecha yordam berishi mumkin edi.

2. Iltimos, xushmuomalalik, buyruq, maslahat, ta'na va mayinlikni ifodalashda (Conditionnel de politesse); bunda ko'pincha devoir, vouloir, pouvoir, savoir fe'llari qo'llanilib, ular boshqa fe'llarning noaniq formasi bilan birga keladi.

Maslan: Pourriez-vous me montrer cette revue ?

Bu jurnalni menga ko'rsata olasizmi?

Voudriez-vous nous expliquer cette regle?

Bu qoidani bizga tushuntirib beraszmi?

3. Ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini taxmin qilishda.

Masalan: Il est pale. Il serait malade.

Uning rangi o'chgan. U kasal bo'lsa kerak.

Elle n'est pas revenue. Elle serait partie.

U qaytib kelmadi. U ketgan bo'lsa kerak.

Le tremblement de terre aurait détruit beaucoup de maisons.

Zilzila ko'p uylarni vayron qilgandir.

Il fait tres chaud. On se croirait au printemps.

Havo juda issiq. Xuddi bahordek.

4. Undov va so'roq gaplarda Conditionnel man qilinadigan harakatni ifodalaydi:

Aurait-il fait cela? Ce n'est pas possible!

Bu ishni u qilganmishmi? Mumkin emas!

5. Ba'zan Conditionnel tasdiqni ifodalaydi.

Masalan: Vous devriez les aider.

Sizulargayordamberishingizkerakedi.

Elle pourrait partir ce soir.

U kechqurun keta olardi.

6. Conditionnel taxmin qilingan holatni on dirait, on eut dit, on aurait dit so'zlari orqali ifodalaydi.

Masalan : Elle rit souvent. On dirait qu'elle est insouciante.



U tez-tez kuladi. Uni beg'am desa bo'ladi.

O'zbek tilida shart mayli

« O'zbek tilida shart mayli hosil bo'lgan fe'lga -sa qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Agar fe'l nomukammal bo'lib, -ma qo'shimchasi bo'lsa, unda -sa qo'shimchasi oxirida bo'ladi.» [3]

Masalan: Agar u o'qishga kelmasa haydalishi tayin.

Agar men bilan birga sayohatga chiqmasang sendan xafa bo'laman.

O'zbek tilida shart mayli shaxs va son kategoriyasiga ega. Jins toifasiga ega emas. Frantsuz tilida bo'lgani kabi, bu holat yoki harakat istagini bildiradi. Edi, ekan so'zi yordamida fe'lga qo'shib, shart mayli istakni ifodalaydi, masalan: kelsa edi. Bu shakl -seydi ga o'zgarishi mumkin. Bu shakl gaplarda predikat yoki holatning sintaktik vazifasini bajarishi mumkin. [3]

Masalan: U bugun ulgursa keladi.

Biz ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillarida shart maylining shakllanishini ko'rib chiqdik. Ko'rib turganimizdek, bu ikki tilda shartli so'z turli yo'llar bilan shakllangan. Bundan tashqari, fransuz tilida shart mayli odobli iltimos, xohish yoki istak, shubha, iltimos, biror narsa yoki maslahatni bildirish uchun ishlatiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Mallina L.E. Andreychikova L.P. Turniyozov Yo. Grammaire francaise . Tachkent 1978 [1,148]
2. Beschèrelle. La grammaire pour tous. Paris. 1997.[2,474]
3. И.Н.Попова. Практическая грамматика французского языка. 12 издание, Nestor academic publisher. Москва.2003год  
Internet saytlari  
kompy.info > ozbek-tilidan-uslubiy-qollanma-bakalavriatda-rus-tilida-tahsil [3]